

KASBIY STANDART
Ta'mirlovchilar va mexaniklar

Reyestr raqami:

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi:

Mazkur kasbiy standart "Ta'mirlovchilar va mexaniklar" deb nomlanib, mexanik ishlar chilangari, avtomobil yig'uvchisi, avtotransport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar hamda kuzovlar rixtovkachisi kasblarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning mehnat faoliyatiga tatbiq etiladi. Standart avtotransport vositalarini ishlab chiqarish, yig'ish, ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va kuzov qismlarini tiklashga ixtisoslashgan korxonalar, sexlar, ustaxonalar hamda texnologik uchastkalarda qo'llaniladi. U kadrlar malakasini baholash, kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, ishga qabul qilishda mehnat vazifalarini aniqlashtirish, xodimlarning kasbiy rivojlanishini rejalashtirish va mehnat faoliyatini sertifikatlashda asosiy hujjat sifatida xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

ko'nikma – mehnat vazifani to'liq bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarni qo'llash qobiliyati;

Kasbiy kompetensiya – xodimning aniq vaziyatda samarali faoliyat yuritish qobiliyati, bunda bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar birligi ifodalanadi.

Texnik xizmat ko'rsatish – avtotransport vositalarining ishga yaroqliligini saqlab turish maqsadida muntazam bajariladigan profilaktik ishlar majmui.

Ta'mirlash – avtotransport vositalaridagi nosozliklarni bartaraf etish va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan ishlar majmui.

Yig'ish – avtomobil yoki uning agregatlari, uzellari va qismlarini belgilangan texnologiya bo'yicha bir butun mahsulotga keltirish jarayoni.

Rixtovka – avtomobil kuzovi yoki uning elementlarini dastlabki shakl va o'lchamlariga keltirishga qaratilgan ishlov berish jarayoni.

Xavfsizlik texnikasi – xodimlarning mehnat jarayonida hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar majmui.

Ish joyi – xodimning mehnat vazifalarini bajarishi uchun belgilangan hudud va sharoitlar yig'indisi.

Norasmiy ta'lim - ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim bo'lib, u shaxsning butun hayoti davomida ta'lim olishida rasmiy ta'limiga qo'shimcha va (yoki) muqobildir;

Informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan yoki rejali, lekin institutsionallashtirilmagan (oiladagi, ish joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga oladigan) ta'lim.

Energiya ta'minoti – Lokomotivga zaruriy quvvat yetkazib berish tizimi (elektr, yoqilg'i yoki bug').

Favqulodda vaziyat – Harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik yoki ekspluatatsion holatlar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgust 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (IFUT-2);

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi – mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – kasbiy tayyorgarlik va malaka talablarini belgilashga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-fevraldagi 80-son qarori – Kasbiy malaka tizimini joriy etish va kasbiy standartlarni ishlab chiqish tartibi haqida.

"Kasbiy standartlar to'g'risida nizom" (Vazirlar Mahkamasining qaroriga ilova) – kasbiy standart tuzilmasi va mazmuni bo'yicha metodik asos.

Milliy kasblar klassifikatori (MKK) – kasblar va mutaxassisliklar tasnifi (O'z DSt 05.007:2020).

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni – texnik reglamentlar va standartlarga amal qilish asoslari.

O'zMSt 641:2025 "Mashg'ulotlar milliy klassifikatori (MMK-2025) – kasblar va mutaxassisliklar tasnifi.

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni – texnik reglamentlar va standartlarga amal qilish tartibini belgilaydi.

ISO 9001:2015 – Sifat menejmenti tizimlari bo'yicha xalqaro standart (korxonalarda sifatni boshqarish talablari).

GOST va O'z DSt standartlari – avtotransport vositalari yig'ish, ta'mirlash, texnik xizmat va kuzov ishlarida qo'llaniladigan texnik me'yorlar va sifat talablari.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining metodik tavsiyalari – kasbiy malakalarni aniqlash va darajalash mezonlari.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tavsiyalari – kasbiy malaka va mehnat bo'yicha xalqaro me'yorlar.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – tarmoq tarif malaka ma'lumotnomasi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Ta'mirlovchilar va mexaniklar.	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Avtotransport vositalari va ularning butlovchi qismlarini texnik jihatdan ishonchli va estetik jihatdan sifatli holatga keltirish, ularning xizmat muddatini uzaytirish hamda raqobatbardoshligini ta'minlashdir. Ushbu faoliyat avtomobil qismlarini yig'ish, ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, kuzov elementlarini tiklash, tekislash va silliqlash, zarurat tug'ilganda bo'yash hamda yakuniy ishlov berish kabi texnologik jarayonlarni bajarishni o'z ichiga oladi.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	29. Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish. 29.1 Motorli transport vositalari ishlab chiqarish. 29.10 Motorli transport vositalari ishlab chiqarish. 29.10.0 Motorli transport vositalari ishlab chiqarish.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Mazkur kasbiy standart avtotransport vositalarini ishlab chiqarish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy faoliyati, bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Standart avtomobil qismlarini yig'ish, uzatma va agregatlarni sozlash, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, kuzov elementlarini tiklash hamda yakuniy ishlov berish bo'yicha turli yo'nalishdagi mutaxassislar faoliyatini qamrab oladi. Kasbiy standart quyidagi yo'nalishlarda mutaxassislarning malakasini tavsiflaydi: Mexanik ishlar chilangari – mexanizmlar, uzatmalar va butlovchi qismlarni yig'ish, demontaj qilish, sozlash va sinovdan o'tkazish; Avtomobil yig'uvchisi – avtomobil qismlari va agregatlarini texnologik xaritalar asosida yig'ish, biriktirish, o'rnatish va ishga tushirish; Avtotransport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar – avtomobillarning texnik holatini aniqlash, rejalashtirilgan xizmat ko'rsatish, nosozliklarni bartaraf etish va ta'mirlash ishlarini bajarish; Kuzovlar rixtovkachisi – kuzov elementlarini to'g'rilash, tiklash, silliqlash, zarur hollarda payvandlash va bo'yashga tayyorlash. Ushbu kasbiy standart mutaxassislarning avtomobilsozlikdagi texnologik jarayonlarga moslashuvini, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish hamda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'limlarining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		82110004 Mexanik yig'uv ishlari chilangari (Mexanik ishlar chilangari)	3

		82110004 Avtotransport vositalari, dastgohlar, mexanizmlar va asbob-uskunalarini yig'ish bo'yicha chilangar (Avtomobil yig'uvchisi)	3
		72319005 Avtomobillarni ta'mirlovchi chilangar (Avtotransport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar)	3
		72319009 Kuzovlar rixtovkachisi	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	82110004 Mexanik yig'uv ishlari chilangari (Mexanik ishlar chilangari)	A1.3	Detallarni yig'ishga tayyorlash	A1.01.3	Ish joyini tartibga keltirish va asboblarni tayyorlash va zarur detallarni texnologik jarayonga muvofiq joylashtirish. Detallarda ko'rinadigan nuqsonni dastlabki ko'zdan kechirish.
				A1.02.3	Detallarda ko'rinadigan nuqsonni dastlabki ko'zdan kechirish.
		A2.3	Avtomobil detallarini yig'ish	A2.01.3	Texnologik yo'riqnomaga muvofiq detallarni yig'ish va yig'ilgan uzelnig to'g'ri joylashganini va erkin harakatlanishini tekshirish
				A2.02.3	Mahkamlash va biriktirish ishlarini sifatli bajarish
		A3.3	Ish sifati va brakni nazorat qilish	A3.01.3	Yig'ilgan detallarni vizual va oddiy uskunalar bilan tekshirish va nuqsonni aniqlagan taqdirda texnologik tartib asosida rahbariga xabar berish.
				A3.02.3	O'z faoliyatida nuqsonsiz ishlash madaniyatiga amal qilish, xavfsizlik qoidalarini buzmaslik.
2	82110004 Avtotranspor	B1.3	Avtomobil qismlari va yig'ma birliklarini	B1.01.3	Ish joyini tayyorlash, texnik hujjatlar (chizmalar, yig'ish sxemalari, texnologik kartalar) bilan tanishish va

3	t vositalari, dastgohlar, mexanizmlar va asbob-uskunalarni yig'ish bo'yicha chilangar (Avtomobil yig'uvchisi)		tayyorlashga tayyorgarlik ko'rish		detallarni o'lchov asboblari yordamida tekshirish, aniqlik sinfini baholash va nosoz qismlarni ajratish.
				B1.02.3	Yig'ish jarayoniga tayyor detallarni ketma-ketlik asosida joylashtirish, ehtiyot qismlar komplektatsiyasini tekshirish.
		B2.3	Avtomobil agregatlari va tizimlarini mexanik yig'ish	B2.01.3	Dvigatel, transmissiya, tormoz, osma va boshqaruv tizimlarini chizmalar asosida yig'ish va mexanik birikmalarni (bolt, shpilka, shayba, podshipnik, mufta va boshqalar) texnik talablarga muvofiq o'rnatish
				B2.02.3	Yig'ilgan qismlarning aylanish, surilish va harakatlanish silliqqligini sinovdan o'tkazish, aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish.
		B3.3	Yig'ilgan avtomobil tizimlarini sozlash, sinov va sifat nazorati	B3.01.3	Yig'ilgan uzellar va tizimlarning ishlashini sinov dastgohlari orqali tekshirish (dvigatel, transmissiya, tormoz tizimi va boshqalar).
				B3.02.3	Sozlash ishlarini bajarish: tormoz masofasi, rul burchagi, uzatma muvozanatini to'g'rilash.
	72319005 Avtomobillar ni ta'mirlovchi chilangar (Avtotransport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar)	C1.3	Texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish	C1.01.3	Avtomobilni texnik ko'rikdan o'tkazish, moy, sovutish suyuqligi, tormoz va rul tizimlarining holatini tekshirish.
				C1.02.3	Rejalashtirilgan texnik xizmat ishlarini bajarish (moy almashtirish, filtrlarni yangilash, qismlarni sozlash).
		C2.3	Avtomobil agregatlari va uzellarini ta'mirlash	C2.01.3	Nosoz qismlarni aniqlash, demontaj qilish va ta'mirlashga tayyorlash.
				C2.02.3	Ta'mirlangan yoki yangi qismlarni o'rnatish, agregatni qayta yig'ish va ishga tushirishdan oldin sinovdan o'tkazish.
		C3.3	Dagnostika, sozlash va sifat nazorati ishlarini bajarish	C3.01.3	Dagnostika uskunalar yordamida dvigatel, elektr tizimi va elektron boshqaruv bloklarini tekshirish.
				C3.02.3	Ta'mirdan so'ng avtomobilning texnik holatini baholash, sinov haydovi o'tkazish va nosozliklar bartaraf etilganini tasdiqlash.

4	72319009 Kuzovlar rixtovkachisi	D1.3	Avtomobil kuzovini diagnostika qilish va nosoz qismlarni aniqlash	D1.01.3	Kuzovning deformatsiyaga uchragan qismlarini aniqlash, o'lchov asboblari yordamida geometrik holatini tekshirish.
				D1.02.3	Ta'mirlash usulini aniqlash (metallni cho'zish, isitish, almashtirish yoki tekislash) va texnologik xaritani tuzish.
		D2.3	Kuzov qismlarini ta'mirlash va shaklini tiklash	D2.01.3	Kuzov elementlarini demontaj qilish, deformatsiyalangan joylarni isitish, cho'zish yoki presslash orqali asl holatiga keltirish.
				D2.02.3	Yangi yoki ta'mirlangan kuzov qismlarini payvandlash, parchinlash yoki yopishtirish yo'li bilan o'rnatish.
		D3.3	Ta'mirlangan kuzovni yakuniy ishlovga tayyorlash va sifat nazorati	D3.01.3	Kuzov sirtini silliqlash, shpaklovka qilish va bo'yashga tayyorlash, himoya qoplamalarini qo'llash.
				D3.02.3	Yig'ilgan kuzov qismlarining geometriyasi, eshik va kapotlarning yopilish aniqligi, bo'yoq sifati bo'yicha yakuniy nazorat o'tkazish.

IV. Kasblar kartasi va mehnat vazifalari tavsifi

Kasbning nomi:	Mexanik yig'uv ishlari chilangari (Mexanik ishlar chilangari)
Mashg'ulot nomining kodi:	82110004
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar:	Umumiy o'rta ta'limni tugatib, o'quv-amaliyot (stajirovka) davrida zarur ko'nikmalarni egallagan bo'lishi kerak.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruhsatlar: - 18 yoshga to'lgan, tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i mazkur kasbni bajarishga yaroqli bo'lgan shaxslar ishga qabul qilinadi; - Erkak va ayol shaxslar uchun kasbda ishlashga ruxsat etiladi (sog'liq holati va ishlab chiqarish sharoitiga ko'ra); - Ishga kirishda dastlabki texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tagan bo'lishi kerak; - Mustaqil ishlash uchun ishlab chiqarish rahbarining (usta, brigadir yoki texnik nazoratchi) ruxsati talab etiladi; - Fuqaro mehnat shartnomasiga ega bo'lishi, o'z ish faoliyatini qonuniy asosda amalga oshirishi va shaxsiy javobgarlikni his eta olishi kerak; - Ish jarayonida vazifalarni to'g'ri rejalashtirish, muhimlik darajasiga ko'ra ustuvorlikni belgilash va ish vaqtini oqilona taqsimlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Ishga munosabat va xulq-atvor: - Rahbarlarga o'z vaqtida, aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi; - Belgilangan texnologik jarayonlar va mehnat intizomiga qat'iy rioya qiladi; - O'z bilimi, tajribasi va vakolatlari doirasida mustaqil qaror qabul qila oladi; - Ish vaqtini unumli, samarali va oqilona taqsimlab, topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi; - Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga amal qiladi; - Jamoa bilan hamkorlikda ishlaydi, o'z tajribasi va amaliy bilimlarini hamkasblari bilan baham ko'radi; - Ish jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni xolis tahlil qilib, ularni hal etish bo'yicha takliflar kiritadi; - O'z kasbiy faoliyatiga oid yangi texnologiyalar, uskunalar va innovatsiyalarni kuzatib boradi, o'rganadi va amaliyotga tatbiq etadi
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	3-daraja uchun: boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;

	umumiy o'rta ta'lim yoki amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	3-daraja uchun: 1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat vazifalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat funksiyalari	
A1.3 Detallarni yig'ishga tayyorlash	A1.01.3 Ish joyini tartibga keltirish va asboblarni tayyorlash va zarur detallarni texnologik jarayonga muvofiq joylashtirish.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyini ishlab chiqarish talablari va xavfsizlik qoidalariga muvofiq tayyorlaydi (stol, yoritish, ventilyatsiya holatini tekshiradi).
		2. Zarur asbob-uskunalarni (kalitlar, tornavida, o'lchov asboblari va h.k.) to'plab, texnik ko'rsatmalar bo'yicha joylashtiradi.
		3. Yig'ish uchun kerakli detallar va butlovchi qismlarni nomenklatura bo'yicha tekshiradi va texnologik ketma-ketlik asosida tartiblaydi.
		4. Ish joyini ortiqcha buyum va chiqindilardan tozalaydi, xavfsiz harakatlanish uchun sharoit yaratadi.
		5. Asbob va ehtiyot qismlarning to'liqligini, nosoz emasligini hamda identifikatsiya belgilarini (raqam, markirovka) tekshiradi.
		Ko'nikmalar:
		Ish joyini ergonomik jihatdan to'g'ri tashkil eta olish;
		Asbob-uskunalarni tanlash, joylashtirish va saqlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
		Detallarni aniqlik bilan ajratish va joylashtirish;
		Bilimlar:
		Ish joyini tashkil etish qoidalari va mehnat gigiyenasi asoslari;
		Asbob-uskunalar va o'lchov vositalarining turlari hamda ularni saqlash qoidalari;
		Texnologik ketma-ketlik, yig'ish chizmasi va texnik hujjatlarning ma'nosi;
		Mehnat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablari.
	A1.02.3 Detallarda ko'rinadigan nuqsonni dastlabki ko'zdan kechirish.	Mehnat harakatlari:
		1. Detallarni tashqi ko'rikdan o'tkazib, yoriq, zang, egilish yoki deformatsiyani aniqlaydi.
		2. O'lchov asboblari yordamida asosiy o'lchamlarni tekshiradi.
		3. Nosoz detallarni ajratib, "nosoz" belgisi bilan belgilaydi va alohida joyga joylashtiradi.
		4. Natijalar haqida ustaga yoki texnik nazoratchiga ma'lumot beradi.
		Ko'nikmalar:
		Tashqi ko'rik asosida detallar holatini aniqlay olish;
		O'lchov asboblariidan to'g'ri va aniq foydalanish;
		Nosoz qismlarni aniqlab, to'g'ri belgilay olish;
		Texnik xulosani aniq va qisqa shaklda ifoda eta olish.
		Bilimlar:

		Detallar turlari, ularning belgilanishi va vazifalari;
		Metallarning asosiy xossalari (qattqlik, cho'ziluvchanlik, deformatsiya chegarasi);
		O'lchov asboblarning tuzilishi, o'lchash aniqligi va ishlatish qoidalari;
		Texnik nazoratning boshlang'ich usullari va nuqson turlari (vizual, o'lchovli, mexanik).
A2.3 Avtomobil detallarini yig'ish	Mas'uliyat mustaqillik:	1. Ish joyini tartibga keltirish, asboblarni to'g'ri joylashtirish va detallarni yig'ishga tayyor holda topshirish uchun shaxsiy javobgarlikka ega.
		2. Ishni usta/brigadir nazorati ostida bajaradi, lekin detallarni saralash va yaroqsiz qismlarni ajratishda mustaqil qaror qabul qiladi va aniqlangan nosozliklar haqida rahbarga xabar beradi.
		3. Mehnat intizomi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish qoidalariga rioya qilmaganligi oqibatida yuzaga keladigan kamchiliklar uchun intizomiy va moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
	A2.01.3 Texnologik yo'riqnomaga muvofig detallarni yig'ish va yig'ilgan uzelning to'g'ri joylashganini va erkin harakatlanishini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Detailarni yig'ish ketma-ketligiga muvofiq biriktiradi, yo'riqnomada ko'rsatilgan moment va tartibni saqlagan holda montaj qiladi.
		2. Yig'ilgan uzelnig to'g'ri o'rnatilganini, markazlashuvi va mos kelishini tekshiradi (masalan, o'qlar bir chiziqda ekanini, siljish yo'qligini).
		3. Harakatlanuvchi qismlarning erkin aylanishi / siljishi / ochilib-yopilishi silliq ekanini qo'lda yoki sinov aylantirish orqali nazorat qiladi.
		4. Yig'ilgan uzelnig vaqtinchalik yoki yakuniy belgilash (markirovka) orqali "tayyor" sifatida keyingi texnologik bosqichga topshiradi.
		Ko'nikmalar:
		Oddiy mexanik uzellarni (richaglar, kronshteynlar, podshipnikli o'qlar, mexanik tutqichlar va h.k.) to'g'ri va ketma-ket yig'a olish.
		Yig'ilgan mexanizmning harakat erkinligini amaliy tekshiruv orqali baholay olish (tiqilish, ishqalanish, notekis harakatni sezish).
		Texnologik yo'riqnomani o'qish va undagi ketma-ketlikka rioya qilgan holda ish bajarish.
		Bilimlar:
		Yig'ilayotgan mexanik uzellarning vazifasi va ishlash prinsipi (masalan: tormoz mexanizmi, osma elementi, bo'g'in birikmasi nima qiladi).
		Yig'ish ketma-ketligi va markazlash talablari (qaysi detal birinchi, qaysi biri keyin o'rnatilishi kerakligi).

		Mexanik ishqalanuvchi juftliklar (val–podshipnik, ilgak–o‘q va h.k.) uchun normal erkin harakat chegaralari.
	A2.02.3 Mahkamlash va biriktirish ishlarini sifatli bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Mahkamlash elementlarini (bolt, gayka, shayba, shpilka, parchin va h.k.) tanlaydi va mos joyiga o‘rnatadi.
		2. Mahkamlash momentini talab etilgan darajaga yetkazish uchun mos asbobdan (kalit, dinamometrik kalit, shtatli siquv moslamasi) foydalanadi.
		3. Biriktirilgan qismlarda bo‘shashish, qiyshayish, notekis siqilish yoki deformatsiya yo‘qligini tekshiradi.
		4. Yakunlangan birikma xavfsizligini hamda normativ mustahkamlik talablariga mosligini tasdiqlaydi va keyingi bosqichga ruxsat beradi.
		Ko‘nikmalar:
		Turli mahkamlash turlarini (rezbali birikma, presslangan birikma, parchinlangan birikma va h.k.) to‘g‘ri bajarish.
		Dinamometrik kalit va oddiy qo‘l asboblari bilan bir xil, barqaror moment berib siqa olish.
		Mahkamlash sifatida nuqsonlarni (bolt “o‘tirib ketmagan”, rezbasi yemirilgan, shayba noto‘g‘ri qo‘yilgan) ko‘ra olish va darhol to‘g‘rilash.
		Bilimlar:
		Mahkamlash elementlarining turlari, belgilanishi va qo‘llanilish sohalari (masalan, kuchlanishga bardoshli boltlar, qarshi shaybalar va h.k.).
		Siqish momentining ahamiyati va noto‘g‘ri siqish oqibatlari (bo‘shashish, sinish, vibratsiya, xavfsizlikka tahdid).
		Mehnat xavfsizligi talablari va qo‘l asboblariidan xavfsiz foydalanish qoidalari.
	Mas’uliyat mustaqillik: va	1. Texnologik yo‘riqnoma talablariga muvofiq detallarni to‘g‘ri yig‘ish, biriktirish va uzellarni sifatli holatda topshirish uchun shaxsiy javobgarlikka ega.
		2. Ishni usta yoki brigadir rahbarligida bajaradi, lekin detallarni joylashtirish, mahkamlash sifatini baholash va nosozliklarni aniqlashda mustaqil qaror qabul qiladi.
		3. Mehnat intizomi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish talablari buzilgan taqdirda yuzaga kelgan xatolik va kamchiliklar uchun intizomiy hamda moddiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.
A3.3 Ish sifati va brakni nazorat qilish	A3.01.3 Yig‘ilgan detallarni vizual va oddiy uskunalar bilan	Mehnat harakatlari: 1. Yig‘ilgan detallarni tashqi ko‘rikdan o‘tkazadi, yoriq, notekis o‘rnatish, bo‘sh birikma yoki deformatsiyani aniqlaydi.

	tekshirish va nuqsonni aniqlagan taqdirda texnologik tartib asosida rahbariga xabar berish. (Andon orqali)	2. O'lchov va nazorat asboblari (shablon, mikrometr, kalibrlovchi shtangensirkul) yordamida o'lchamlarni tekshiradi. 3. Aniqlangan nuqsonni texnologik yo'riqnoma bo'yicha hujjatlashtiradi va Andon tizimi orqali rahbar (usta/brigadir)ga xabar beradi. 4. Braklangan detallarni ajratadi, "nosoz" belgisi bilan alohida joyga qo'yadi va qayta ishlov uchun tayyorlaydi. Ko'nikmalar: Vizual va o'lchov asboblari yordamida yig'ilgan detallar sifatini baholay olish. Nuqson turlarini (deformatsiya, bo'sh mahkamlash, qiyshayish) aniqlay olish va ularni hujjatlashtirish. Andon tizimi orqali to'g'ri va o'z vaqtida ogohlantirish yubora olish. Bilimlar: Ishlab chiqarishdagi sifat nazorati bosqichlari va Andon tizimi ishlash prinsipi. Asosiy o'lchov asboblari va ularning aniqlik sinflari haqida ma'lumot. Nuqsonlar turlari, ularning sabablari va bartaraf etish usullari.
	A3.02.3 O'z faoliyatida nuqsonsiz ishlash madaniyatiga amal qilish, xavfsizlik qoidalarini buzmaslik.	Mehnat harakatlari: 1. Ish jarayonida 5S va GM-GMS tamoyillariga amal qiladi. 2. Mehnatni muhofaza qilish, elektr va yong'in xavfsizligi qoidalarini qat'iy bajaradi. 3. Ish joyidagi tartib-intizomni saqlaydi, xavfli holatni sezgan zahoti rahbarga yoki xavfsizlik xodimiga xabar beradi. 4. Sifatga ta'sir etuvchi omillar (tartibsizlik, nosoz asbob, e'tiborsizlik)ni bartaraf etish uchun o'z tashabbusi bilan harakat qiladi. Ko'nikmalar: Ish jarayonida nuqsonsiz ishlash madaniyatini (zero defect mindset) qo'llay olish. Ish joyidagi xavf omillarini aniqlash va oldini olish choralarini bilish. Sifat, xavfsizlik va tartib-intizomni jamoaviy ravishda qo'llab-quvvatlash. Bilimlar: Mehnat xavfsizligi, 5S tizimi va ishlab chiqarish madaniyati asoslari. GM-GMS tamoyillari va ularning amaliy qo'llanilishi. Ishlab chiqarishdagi nuqsonsizlik madaniyati va korxona sifat siyosati.

	Mas’uliyat mustaqillik:	va	Yig’ilgan detallar sifatini vizual va asboblar yordamida tekshirish, aniqlangan nuqsonni vaqtida rahbarga (Andon orqali) yetkazish hamda nosoz qismlarni ajratish uchun shaxsiy javobgarlikka ega.
Ishni usta yoki brigadir nazorati ostida bajaradi, biroq sifat tekshiruvi jarayonida nuqsonni aniqlash va xabar berish bo’yicha mustaqil qaror qabul qiladi.			
Ish sifatiga beparvolik, mehnat xavfsizligi va ishlab chiqarish tartib-qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida yuzaga kelgan brak yoki shikastlanishlar uchun intizomiy va moddiy javobgarlikni o’z zimmasiga oladi.			
Texnik va/yoki texnologik talab			1. Ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini, yig’ish va sozlash bosqichlarini bilishi, texnologik ketma-ketlikka qat’iy amal qilishi. 2. Asbob-uskunalar, o’lchov vositalari va mexanik birikmalar bilan ishlashning asosiy texnik qoidalarini bilishi. 3. Mahsulot sifati va xavfsizlikka ta’sir etuvchi texnologik parametrlarni (siqish momenti, qalinlik, sirt tekisligi, yopishuvchanlik) nazorat qila olishi. 4. Ish jarayonida texnik hujjatlar — yo’riqnomalar, texnologik xaritalar va me’yoriy talablar asosida ishlay olishi. 5. Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va ekologik talablarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishi.

Kasbning nomi:	Avtotransport vositalari, dastgohlar, mexanizmlar va asbob-uskunalarini yig'ish bo'yicha chilangar (Avtomobil yig'uvchisi)
Mashg'ulot nomining kodi:	82110004
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar:	Umumiy o'rta ta'limni tugatib, o'quv-amaliyot (stajirovka) davrida zarur ko'nikmalarni egallagan bo'lishi kerak.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruhsatlar: - 18 yoshga to'lgan, tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i mazkur kasbni bajarishga yaroqli bo'lgan shaxslar ishga qabul qilinadi; - Erkak va ayol shaxslar uchun kasbda ishlashga ruxsat etiladi (sog'liq holati va ishlab chiqarish sharoitiga ko'ra); - Ishga kirishda dastlabki texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tagan bo'lishi kerak; - Mustaqil ishlash uchun ishlab chiqarish rahbarining (usta, brigadir yoki texnik nazoratchi) ruxsati talab etiladi;

	- Fuqaro mehnat shartnomasiga ega bo'lishi, o'z ish faoliyatini qonuniy asosda amalga oshirishi va shaxsiy javobgarlikni his eta olishi kerak; - Ish jarayonida vazifalarni to'g'ri rejalashtirish, muhimlik darajasiga ko'ra ustuvorlikni belgilash va ish vaqtini oqilona taqsimlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Ishga munosabat va xulq-atvor: - Rahbarlarga o'z vaqtida, aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi; - Belgilangan texnologik jarayonlar va mehnat intizomiga qat'iy rioya qiladi; - O'z bilimi, tajribasi va vakolatlari doirasida mustaqil qaror qabul qila oladi; - Ish vaqtini unumli, samarali va oqilona taqsimlab, topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi; - Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga amal qiladi; - Jamoa bilan hamkorlikda ishlaydi, o'z tajribasi va amaliy bilimlarini hamkasblari bilan baham ko'radi; - Ish jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni xolis tahlil qilib, ularni hal etish bo'yicha takliflar kiritadi; - O'z kasbiy faoliyatiga oid yangi texnologiyalar, uskunalar va innovatsiyalarni kuzatib boradi, o'rganadi va amaliyotga tatbiq etadi	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	3-daraja uchun: boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim; umumiy o'rta ta'lim yoki amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	6-daraja uchun: 3-daraja uchun: 1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat vazifalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat funksiyalari	
B1.3 Avtomobil qismlari va yig'ma birliklarini tayyorlashga tayyorgarlik ko'rish	B1.01.3 Ish joyini tayyorlash, texnik hujjatlar (chizmalar, yig'ish sxemalari, texnologik kartalar) bilan tanishish va detallarni o'lchov asboblari yordamida tekshirish, aniqlik sinfini baholash va nosoz qismlarni ajratish.	Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyini texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga muvofiq tayyorlaydi.
		2. Yig'ish uchun zarur texnik hujjatlar bilan tanishadi va kerakli chizmalarni o'rganadi.
